XALQ DEPUTATLARI NAMANGAN VILOYATI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 11-iyul VII-12-101-6-0-K/25 Namangan viloyati

Budjet xarajatlari samaradorligi ustidan tizimli nazorat o‘rnatish hamda mahalliy budjetning samarasiz, past samarali xarajatlari bo‘yicha maqbullashtirilgan mablag‘lar hisobidan yo‘naltirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 119, 120, 126-moddalariga asosan, Namangan viloyati hokimining 2025-yil 17-iyundagi 01/10-755-sonli taqdimnomasi hamda Namangan viloyati iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi boshlig‘i birinchi o‘rinbosari M.Abdullayevning hisoboti asosida budjet xarajatlari samaradorligi ustidan tizimli nazorat o‘rnatish hamda samarasiz, past samarali xarajatlari bo‘yicha maqbullashtirilgan mablag‘lar hisobidan yo‘naltirish to‘g‘risida, xalq deputatlari Namangan viloyati Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining:

119-moddasiga asosan Davlat budjetining qo‘shimcha manbalari Davlat budjetining har bir darajasidagi budjetlarida alohida-alohida shakllantirilishi;

qo‘shimcha manbalar tarkibiga Budjet Kodeksining 120-moddasi to‘rtinchi qismiga muvofiq budjetdan ajratiladigan mablag‘lar kamaytirilishi natijasida bo‘shab qolgan mablag‘lar ham kiritilganligi hamda Namangan viloyati hokimining 2025-yil 17-iyundagi 01/10-755-sonli taqdimnomasi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Budjet Kodeksining 126-moddasiga asosan, viloyat hokimligining Xalq deputatlari Namangan viloyati Kengashiga taqdim etgan taklifiga muvofiq, viloyat mahalliy budjetining 2025-yilgi xarajatlari bo‘yicha maqbullashtirilgan mablag‘lar hisobidan ilovaga muvofiq 70 088 700,0 (etmish milliard sakson sakkiz million yetti yuz) ming so‘m mablag‘lar yo‘naltirish to‘g‘risidagi takliflari ma’qullansin.

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 11-dekabrdagi 137-sonli rayosat majlisi bayoniga asosan Namangan Erkin iqtisodiy zonasi Zarafshon massivi hududida ichki xo‘jalik yo‘lini mukammal ta’mirlash bo‘yicha loyiha-smeta xujjatlarini ishlab chiqish uchun 300,0 mln.so‘m mablag‘ ajratilganligi hamda 2024-yil yakuniga qadar moliyalashtirilmaganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 11-dekabrdagi 137-sonli rayosat majlisi bayoniga asosan ajratilgan mablag‘lar hamda viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi huzuridagi Avtomobil yo‘llarini rivojlantirish hududiy maqsadli jamg‘armasining qoldiq mablag‘lari hisobidan Namangan Erkin iqtisodiy zonasi Zarafshon massivi hududida ichki xo‘jalik yo‘lini mukammal ta’mirlash bo‘yicha loyiha-smeta xujjatlarini ishlab chiqish uchun Namangan mintaqaviy yo‘llarga buyurtmachi xizmati DMga 300,0 (uch yuz) million so‘m mablag‘ yo‘naltirilsin.

4. Xarajatlarni amalga oshirishga mas’ul tashkilotlar rahbarlariga:

ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanish, rasmiylashtirilgan hujjatlarni viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi hamda viloyat g‘aznachilik xizmati boshqarmasiga taqdim etish hamda belgilangan tartibda to‘lovlarni amalga oshirish vazifalari yuklatilsin.

5. Viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (M.Abdullayev)ga budjet xarajatlariga belgilangan tartibda tegishli o‘zgartirishlar kiritish hamda viloyat g‘aznachilik xizmati boshqarmasi (A.To‘rayev)ga to‘lovlarni o‘rnatilgan tartibda va o‘z vaqtida amalga oshirish hamda Davlat moliyaviy nazorat inspeksiyasi viloyat boshqarmasi (B.Xodjiyev)ga ajratilgan mablag‘lardan maqsadli foydalanilishini nazorat qilish vazifalari topshirilsin.

6. Ushbu qaror tegishli tahririyatlar va ommaviy axborot vositalarida yoritilishi tavsiya etilsin hamda viloyat hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

7. Mazkur qaror ijrosining nazorati Xalq deputatlari viloyat Kengashining mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi I.Ikramov hamda viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari Z.Baxriddinov zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi MUMINOV SOLIJON DJALILOVICH

Xalq deputatlari Namangan viloyati Kengashining
2025-yil 11-iyuldagi
VII-12-101-6-0-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Namangan viloyatining viloyat mahalliy budjetining 2025-yilgi xarajatlari bo‘yicha maqbullashtirilgan mablag‘lar hisobidan yo‘naltirilayotgan mablag‘lar

№	Mablag‘ oluvchilar nomi	Tadbirlar nomi	Ajratilgan mablag‘lar miqdori (ming.so‘m)
1	Namangan viloyati sport boshqarmasi	Namangan viloyati sport boshqarmasining tasdiqlangan kalendar rejasiga muvofiq Jahon, Osiyo va Respublika darajasidagi turnirlar, musobaqalar, o‘quv mashg‘ulot tadbirlarda ishtirok etishi lozim bo‘lgan sportchi va murabbiylarning tadbir xarajatlari uchun	1 200 000,0
2	Viloyat investitsiyalar, sanoat va savdo boshqarmasi	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-fevraldagi PQ-57-sonli qarori ijrosiga muvofiq, quyosh panellari o‘rnatish xarajatlari uchun	350 000,0
3	Namangan viloyati o‘simliklar karantini va himoyasi boshqarmasi	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-fevraldagi PQ-57-sonli qarori ijrosiga muvofiq, quyosh panellari o‘rnatish xarajatlari uchun	210 000,0
4	Viloyat sport uyinlari va yengil atletikaga ixtisoslashgan sport maktabi	Sport maktabi turnirlar, musobaqalar, o‘quv mashg‘ulot tadbirlarida ishtirok etishi lozim bo‘lgan sportchi va murabbiylarning tadbir xarajatlari uchun	200 000,0
5	Uchqo‘rg‘on tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-fevraldagi PQ-57-sonli qarori ijrosiga muvofiq, quyosh panellari o‘rnatish xarajatlari uchun	70 000,0
6	Davlatobod tumani “Yangi	“Yangi O‘zbekiston - yoshlar ziyo maskani” axborot-	60 000,0

№	Mablag‘ oluvchilar nomi	Tadbirlar nomi	Ajratilgan mablag‘lar miqdori (ming.so‘m)
	O‘zbekiston - yoshlar ziyo maskani” axborot-kutubxonasi	kutubxonasining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish xarajatlari uchun	
7	Uchqo‘rg‘on tumani sport maktabi	Uchqo‘rg‘on tumani sport maktabining Kattachek, Islomobod, Kattamog‘ol MFYlar hududlarida joylashgan filiallarini moddiy-texnika bazasini rivojlantirish xarajatlari uchun	600 000,0
8	Namangan tumani hokimligi	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 1-maydagi PQ-4700-son qarori ijrosiga muvofiq, Sherbuloq massividagi “Sherbuloq suv inshooti”ni rekonstruksiya qilish ishlaridan hosil bo‘lgan qarzdorlikni qoplash uchun	1 166 500,0
9	Chust tumani hokimligi	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 1-maydagi PQ-4700-son qarori ijrosiga muvofiq, Chust tumani Axcha hududida 11 dona tik quduq qazish ishlaridan hosil bo‘lgan qarzdorlikni qoplash uchun	1 108 000,0
10	Namangan shahar iqtisodiyot va moliya bo‘limi	Namangan shahar iqtisodiyot va moliya bo‘limining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish xarajatlari uchun	100 000,0
11	Namangan viloyati sog‘liqni saqlash boshqarmasi	Namangan viloyati sog‘liqni saqlash boshqarmasi tizimidagi sog‘liqni saqlash muassasalarini orgtexnika jihozlari bilan ta’minlash xarajatlari uchun	11 000 000,0
12	Namangan viloyati sog‘liqni saqlash boshqarmasi	Namangan viloyati sog‘liqni saqlash boshqarmasi tizimidagi sog‘liqni saqlash muassasalarini tibbiyot jihozlari bilan ta’minlash xarajatlari uchun	10 000 000,0
13	Namangan viloyati sog‘liqni saqlash boshqarmasi	Imtiyozli kontingenlarga tish protezlarini o‘rnatish xarajatlari uchun	130 000,0
14	Namangan shahar tibbiyot birlashmasi	Namangan shahar tibbiyot birlashmasining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish uchun jihozlar sotib olish hamda kommunal to‘lovlardan bo‘lgan qarzdorliklarini bartaraf etish xarajatlari uchun	3 321 000,0
15	Davlatobod tumani tibbiyot	Davlatobod tumani tibbiyot birlashmasining kommunal	143 000,0

№	Mablag‘ oluvchilar nomi	Tadbirlar nomi	Ajratilgan mablag‘lar miqdori (ming.so‘m)
	birlashmasi	to‘lovlardan bo‘lgan qarzdorliklarini bartaraf etish xarajatlari uchun	
16	Yangi Namangan tumani tibbiyot birlashmasi	Yangi Namangan tumani tibbiyot birlashmasining ko‘mir tashish, kommunal to‘lov hamda boshqa qarzdorliklarni bartaraf etish xarajatlari uchun	603 000,0
17	Mingbuloq tumani tibbiyot birlashmasi	Mingbuloq tumani tibbiyot birlashmasining ko‘mir tashish hamda kommunal to‘lovlardan qarzdorliklarni bartaraf etish xarajatlari uchun	170 000,0
18	Namangan tumani tibbiyot birlashmasi	Namangan tumani tibbiyot birlashmasining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish uchun jihozlar sotib olish xarajatlari uchun	1 950 000,0
19	Norin tumani tibbiyot birlashmasi	Norin tumani tibbiyot birlashmasining kommunal to‘lovlardan qarzdorliklarni bartaraf etish xarajatlari uchun	60 000,0
20	Pop tumani tibbiyot birlashmasi	Pop tumani tibbiyot birlashmasining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish uchun jihozlar sotib olish hamda kommunal to‘lovlardan bo‘lgan qarzdorliklarini bartaraf etish xarajatlari uchun	2 500 000,0
21	To‘raqo‘rg‘on tumani tibbiyot birlashmasi	To‘raqo‘rg‘on tumani tibbiyot birlashmasining kommunal to‘lovlar va boshqa qarzdorliklarini bartaraf etish xarajatlari uchun	1 356 000,0
22	Uychi tumani tibbiyot birlashmasi	Uychi tumani tibbiyot birlashmasining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish uchun jihozlari sotib olish, kommunal to‘lov hamda boshqa qarzdorliklarni bartaraf etish xarajatlari uchun	2 387 000,0
23	Uchqo‘rg‘on tumani tibbiyot birlashmasi	Uchqo‘rg‘on tumani tibbiyot birlashmasining kommunal to‘lovlardan bo‘lgan qarzdorliklarini bartaraf etish xarajatlari uchun	560 000,0
24	Chortoq tumani tibbiyot birlashmasi	Chortoq tumani tibbiyot birlashmasining ta’mirlash bilan bog‘liq xarajatlari uchun	4 000 000,0
25	Yangiqo‘rg‘on tumani tibbiyot birlashmasi	Yangiqo‘rg‘on tumani tibbiyot birlashmasining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish uchun jihozlari sotib olish uchun	1 950 000,0
26	Namangan viloyati iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi	Namangan viloyati iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish xarajatlari uchun	1 200 000,0

№	Mablag‘ oluvchilar nomi	Tadbirlar nomi	Ajratilgan mablag‘lar miqdori (ming.so‘m)
27	Namangan shahar maktabgacha va maktab ta’limi bo‘lim	Namangan shahar maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limiga qarashli maktablarni jihozlash hamda ta’mirlash bilan bog‘liq xarajatlar uchun	2 335 400,0
28	Davlatobod tumani maktabgacha va maktab ta’limi bo‘lim	Davlatobod tumani maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limiga qarashli maktablarni jihozlash bilan bog‘liq xarajatlar uchun	1 732 500,0
29	Yangi Namangan tumani maktabgacha va maktab ta’limi bo‘lim	Yangi Namangan tumani maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limiga qarashli maktablarni jihozlash hamda ta’mirlash bilan bog‘liq xarajatlar uchun	1 485 000,0
30	Mingbuloq tumani maktabgacha va maktab ta’limi bo‘lim	Mingbuloq tumani maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limiga qarashli maktablarni jihozlash hamda ta’mirlash bilan bog‘liq xarajatlar uchun	2 549 800,0
31	Kosonsoy tumani maktabgacha va maktab ta’limi bo‘lim	Kosonsoy tumani maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limiga qarashli maktablarni jihozlash bilan bog‘liq xarajatlar uchun	1 959 700,0
32	Namangan tumani maktabgacha va maktab ta’limi bo‘lim	Namangan tumani maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limiga qarashli maktablarni jihozlash bilan bog‘liq xarajatlar uchun	715 500,0
33	Norin tumani maktabgacha va maktab ta’limi bo‘lim	Norin tumani maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limiga qarashli maktablarni jihozlash bilan bog‘liq xarajatlar uchun	2 242 200,0
34	Pop tumani maktabgacha va maktab ta’limi bo‘lim	Pop tumani maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limiga qarashli maktablarni jihozlash bilan bog‘liq xarajatlar uchun	1 152 000,0
35	To‘raqo‘rg‘on tumani maktabgacha va maktab ta’limi bo‘lim	To‘raqo‘rg‘on tumani maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limiga qarashli maktablarni jihozlash bilan bog‘liq xarajatlar uchun	1 451 600,0
36	Uychi tumani maktabgacha va maktab ta’limi bo‘lim	Uychi tumani maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limiga qarashli maktablarni jihozlash bilan bog‘liq xarajatlar uchun	1 653 100,0
37	Uchqo‘rg‘on tumani maktabgacha va maktab ta’limi bo‘lim	Uchqo‘rg‘on tumani maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limiga qarashli maktablarni jihozlash bilan bog‘liq xarajatlar uchun	1 314 100,0
38	Chortoq tumani maktabgacha va maktab ta’limi bo‘lim	Chortoq tumani maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limiga qarashli maktablarni jihozlash bilan bog‘liq xarajatlar uchun	1 116 700,0

№	Mablag‘ oluvchilar nomi	Tadbirlar nomi	Ajratilgan mablag‘lar miqdori (ming.so‘m)
39	Chust tumani maktabgacha va maktab ta’limi bo‘lim	Chust tumani maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limiga qarashli maktablarni jihozlash hamda ta’mirlash bilan bog‘liq xarajatlar uchun	2 687 100,0
40	Yangiqo‘rg‘on tumani maktabgacha va maktab ta’limi bo‘lim	Yangiqo‘rg‘on tumani maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limiga qarashli maktablarni jihozlash bilan bog‘liq xarajatlar uchun	1 299 500,0
	J A M I		**70 088 700,0**